



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
e
LIBRARY.RU

AMINOV Dalerjon Alisher-o'g'li
 Buxoro Davlat Universiteti o'qituvchisi
 E-mail: daleraminov554@mail.ru

HUQUQIY TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASIDA KLASTER TIZIMINING O'RNI

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): AMINOV D. A. Huquqiy ta'lism va amaliyot integratsiyasida klaster tizimining o'rni // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) B. 87–93.



4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Maqolada huquqiy ta'limda klasterlash tizimining mazmun-mohiyati, uning ta'lism va amaliyot integratsiyasidagi o'rni hamda zamonaviy ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Klasterlash oliy yuridik ta'lim muassasalari, sud-huquq organlari, advokatura, notariat va yuridik klinikalarini yagona tizimda birlashtirib, talabalarni nazari bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqot O'zbekiston sharoitida huquqiy ta'lim klasterlarini rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni taklif etadi. Unda milliy konsepsiyanı ishlab chiqish, hududiy klasterlarni shakllantirish va raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari yoritiladi. Shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida klasterlash samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib beriladi. Olingan xulosalar huquqiy ta'lim sifatini oshirish, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash hamda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Maqolada huquq ta'limida klasterlashning ahamiyati, afzalliklari va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari ham keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ta'lim, klasterlash, pro bono, yuridik klinika, ta'lim modeli, ta'lim va amaliyot integratsiyasi.

АМИНОВ Далержон

Преподаватель Бухарского
государственного университета
E-mail: daleraminov554@mail.ru

РОЛЬ КЛАСТЕРНОЙ СИСТЕМЫ В ИНТЕГРАЦИИ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПРАКТИКИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются сущность системы кластеризации в юридическом образовании, её роль в интеграции обучения и практики, а также влияние на современный образовательный процесс. Кластеризация объединяет в единую систему высшие юридические учебные заведения, судебно-правоохранительные органы, адвокатуру, нотариат и юридические клиники, что способствует подготовке студентов к применению теоретических знаний на практике. В исследовании предлагаются новые подходы к развитию кластеров юридического образования в Узбекистане, в том числе разработка национальной концепции, формирование региональных кластеров и интеграция цифровых технологий в образовательный процесс. Кроме того, на основе сравнительного анализа с опытом США, Великобритании и Германии показаны пути повышения эффективности кластеризации. Полученные выводы направлены на повышение качества юридического образования, подготовку конкурентоспособных специалистов на рынке труда и повышение правовой культуры населения. В статье также широко освещаются значение, преимущества и перспективы внедрения кластеризации в юридическом образовании Узбекистана.

Ключевые слова: юридическое образование, кластеризация, pro bono, юридическая клиника, модель обучения, интеграция обучения и практики.

DALERJON Aminov
Teacher of Bukhara state university
E-mail: daleraminov554@mail.ru

THE ROLE OF THE CLUSTER SYSTEM IN THE INTEGRATION OF LEGAL EDUCATION AND PRACTICE

ANNOTATION

The article analyzes the essence of the clustering system in legal education, its role in the integration of education and practice, and its impact on the modern educational process. Clustering unites higher legal education institutions, judicial and law enforcement bodies, the bar, notary offices, and legal clinics into a single system, serving to prepare students to apply theoretical knowledge in practice. The study proposes new approaches to the development of legal education clusters in Uzbekistan, highlighting issues such as the development of a national concept, the formation of regional clusters, and the integration of digital technologies into the educational process. In addition, based on a comparative analysis with the experiences of countries such as the USA, the UK, and Germany, ways to improve the efficiency of clustering are presented. The findings contribute to improving the quality of legal education, training competitive specialists in the labor market, and raising the legal culture of the population. The article also broadly covers the importance, advantages, and prospects of implementing clustering in legal education in Uzbekistan.

Keywords: legal education, clustering, pro bono, legal clinic, education model, integration of education and practice.

Bugungi globallashuv va tezkor texnologik taraqqiyot sharoitida ta'lim sifatini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu borada ta'lim tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etish zarurati tug'iladi. Kadrlar tayyorlash va ularni zamon talabiga mos qilish bozor iqtisodiyoti sharoitida ularni raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash zamon talabiga va ta'lim muassasalari oldida qo'yilgan asosiy masalalardan. Ayniqsa, huquqiy ta'lim sohasida klasterlash tizimini joriy etish katta ahamiyat kasb etmoqda. Klasterlash ta'lim muassasalari, davlat idoralari va biznes sektorlari o'rtaida uzviy aloqalarni kuchaytirish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yondashuvdir.

"**Klaster**" — ingliz tilidagi *cluster* so'zidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi "to'plam", "guruh", "bir-biriga yaqin joylashgan obyektlar majmuasi" deganidir. Dastlab bu atama tabiiy fanlarda, kompyuter texnologiyasi va iqtisodiyot sohalarida bir xil xususiyatga ega obyektlar majmuasini ifodalash uchun qo'llanilgan.

"Klaster" modeli dastlab Yevropa va AQSH iqtisodiy tizimida shakllanib, Maykl Porter tomonidan ishlab chiqilgan va sanoat tarmoqlari rivoji uchun taklif etilgan. Keyinchalik bu tizim ta'lim va ilmiy sohalarga ham joriy qilinib, yuridik ta'lim sohasida esa O'zbekistonda yaqin yillardan boshlab huquqiy ta'lim klasteri elementlari sifatida shakllantirilmoqda [1].

O'zbekiston yuridik tizimida "**klaster**" tushunchasi ilk bor rasmiy hujjatlarda Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-apreldagi **PF-5987-son farmonida** bevosita yuridik ta'limni modernizatsiya qilish doirasida tilga olina boshlandi [2]. Ushbu farmonning 3-bandida yuridik kadrlarni tayyorlashga buyurtma shakllantirishning tartibi sifatida potensial ish beruvchilar bilan birgalikda shartnoma asosida mutaxassislar tayyorlashni (ta'lim klasterlari) tashkil etish nazarda tutilgan.

Yuqorida farmonga asosan yuridik ta'lim klasterlarini shakllantirish, talabalarni amaliy ish jarayoniga jalb qilish va aholiga bepul yuridik xizmatlar ko'rsatish, Oliy yuridik ta'lim muassasalarida amaliyatga asoslangan ta'lim dasturlarini joriy etish yuridik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, amaliyat va ilmiy faoliyatni integratsiya qilish, ilmiy izlanishlarni tizimlashtirish, zamnaviy

huquqiy muammolar yechimiga qaratilgan tadqiqotlarni rag‘batlantirish pirovardida bitiruvchilarni ish bozoriga raqobatbardosh tayyorlash vazifalarini bajaruvchi samarali model sifatida rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Huquqiy ta‘lim klasterlari – bu yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, ilmiy-tadqiqot olib borish va amaliyotchi yuridik mutaxassislarini birlashtirgan tizimli hamkorlik modeli hisoblanadi. Bu modelda oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy markazlar, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, yuridik klinikalar va boshqa soha vakillari o‘zaro uzviy hamkorlik qiladi. Ushbu sohani o‘rganish jarayonida o‘z navbatida huquq sohasida ta‘lim klasterlari quyidagi 2 ta asosiy turga bo‘linadi:

Ilmiy-tadqiqot klasterlari – Huquqshunoslik bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib boriladigan markazlar va institutlarni birlashtiradi.

Amaliy-huquqiy klasterlar – Sud organlari, advokatlik byurolari, davlat idoralari bilan hamkorlik asosida tashkil qilinadi.

Huquqiy ta‘lim klasterlari orqali davlat va xususiy ta‘lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar o‘rtasida kooperatsiya kuchayadi. Bu tizim orqali talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyati yaratiladi. Xususan, O‘zbekistonda yuridik ta‘lim klasterlarini joriy etish orqali, talabalarning huquqiy masalalarga oid bilimlarini amaliy holatlar bilan bog‘lash mumkin. Bunday yondashuv nafaqat ta‘lim sifatini oshiradi, balki mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali mutaxassislarini tayyorlashga ham xizmat qiladi.

Huquqiy ta‘limda klasterlashni rivojlantirish orqali talabalarning amaliyotga yaqin bilim olishlari va ishga tayyorgarliklari samarali tashkil etilishi mumkin.

2024-yil 24-mayda Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas‘uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi farmonida klasterlashning ushbu yondashuvi yuridik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlar qatorida zikr etilgan. Unga ko‘ra **maktablarda** “Huquq sinfi” va huquq fanlari chuqurlashtirilgan holda o‘qitilishini tashkil etish orqali yuridik kadrlarni tayyorlashda “maktab – litsey – texnikum – universitet” tizimini joriy etish nazarda tutilgan [3].

Huquq klasterini bunday tushunish ta‘lim tizimining muvaffaqiyatli o‘zgarishi uchun ta‘lim tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va hamkorliklarni nazarda tutadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishda Kanadalik ta‘lim nazariyotchisi Maykl Fullan tomonidan ilgari surilgan **“yuqorida pastga” va “pastdan yuqoriga”** yondashuvlarning uzviy integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Ya‘ni ta‘lim tizimida amalga oshiriladigan islohotlarning samaradorligi, nafaqat yuqori boshqaruv organlari tomonidan belgilangan strategik qarorlar va tashabbuslarga, balki ta‘lim muassasalari, pedagoglar, talabalar va jamoatchilikning faol ishtiropi hamda o‘zaro hamkorlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Huquqiy ta‘lim klasteri faoliyatida esa ushbu ikki yondashuv asosida tizim ichidagi institutlar o‘rtasida o‘zaro sinergiyani shakllantirish orqali ta‘lim sifatini oshirish, professional kadrlar tayyorlash va amaliyotchi yuristlar salohiyatini mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi. Huquqiy ta‘lim klasterlash yo‘lidagi ushbu islohot nafaqat kadrlar tayyorlashda balki aholining huquqiy ongini shakllantirish va madaniyatini oshirish yo‘lida barcha institutlarning maktabgacha ta‘limdan oliy ta‘limgacha bo‘lgan tsiklda nazariy-amaliy birlashishtirishda qo‘l keladi.

Ta‘limda klaster yondashuvning qo‘llanilishi istiqbolda samarali harakatlar oqibatida sifatli ta‘lim va erishishdagi masalalarga yechim bo‘lishi mumkin. R. Skornyakova ta‘kidlashicha, Ta‘lim klasteri - bu moslashuvchan tarmoqli tuzilma bo‘lib, u o‘zaro bog‘langan obyektlar (ta‘limmuassasalari, jamoatvasiyosiytashkilotlar, ilmiy institutlar, universitetlar

va ilmiy tadqiqot tashkilotlari) guruhlarini o‘z ichiga oladi. Bu guruhlar innovatsion ta‘lim faoliyati orqali dolzarb muammolarni hal qilish va ma‘lum natijaga (mahsulotga) erishish uchun birlashadi [5]. Ushbu olimaning fikrini qo‘llash oqibatida ta‘lim tizimida **sinergiya** hosil qilish mumkin. Sinergiya effekti nima? Sinergiya tushunchasi yunon tilidan olingan bo‘lib, hamjihatlik, birgalikdagi faoliyat, kooperativlik, birgalikda ishlash degan ma‘nolarni anglatadi [6]. Bu ta‘lim sohasida qo‘llaydigan bo‘lsak ikki yoki undan ortiq tashkilot va institatlarning hamkorlikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladigan, ularning alohida faoliyatidan ko‘ra yuqoriroq va samaraliroq natija beruvchi jarayondir. Ya‘ni, “**1+1=11**” effekti. Masalan: **Huquqiy ta‘lim klasterlarida** aynan ushbu effekt samarali ta‘sir ko‘rsatishi ya‘ni universitet, yuridik klinika, advokatlar palatasi, sud organlari va boshqalar hamkorlik qilsa, ular alohida-alohida qiladigan ishlarga qaraganda birgalikdagi ta‘siri samaraliroq bo‘ladi. Bu — sinergiya effekti. Sinergiya bu yerda **klaster modelining printsipi** sifatida amal qiladi. **Y.V. Kalinyuk, L.G. Smyshlyeva, D.M. Matveev** bu borada fikrimizga ilmiy dalil sifatida ta‘lim tizimlarini rivojlantirishda klaster yondashuvining dolzarbligi, avvalo, ushbu format turli ta‘lim natijalarida sinergetik (birgalikdagi kuchaytiruvchi) ta‘sirga erishishdagi afzalliliklari bilan belgilanishini, ta‘bir joiz bo‘lsa, ta‘lim klasterlarida umumiyyatni maqsad markaziy nuqta hisoblanishini va aynan umumiyyatni maqsad klaster ishtirokchilarini o‘zaro hamkorlikda mazmun, kommunikatsiya va texnologiya jihatlarini tanlashga va shu orqali natjalarga erishishga yo‘naltirishini alohida ta‘kidlab o‘tgan [7].

Ko‘pgina mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ta‘lim sohalarining klasterlashuvi ta‘limni modernizatsiya qilish, uning mazmuni va tashkiliy-texnologik formatlarini o‘zgartirish masalalarini hal qilishda muhim omil hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta‘lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni doirasida yuridik ta‘lim tizimini rivojlantirish doirasida yuridik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash va ular uchun buyurtmalarni shakllantirish mexanizmi joriy etilmoqda. Bu jarayonda yuridik ta‘lim klasterlari alohida ahamiyatga ega, chunki ushbu klasterlar potensial ish beruvchilar bilan shartnomaga asosida mutaxassislar tayyorlash tizimini tashkil qilish imkonini beradi. Bu orqali ta‘lim muassasalari huquqiy bozor talablari va ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlashga yo‘naltiriladi. Yuridik ta‘lim klasteri, shuningdek, ta‘lim va amaliyot o‘rtasida yaqin aloqa o‘rnatishga ko‘maklashadi, bu esa nafaqat ta‘lim sifatini oshirishga, balki yurtimizda yuridik fanlarning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatni ijrosi yuzasidan huquq ta‘limida klasterlashning rivojlanishi nafaqat milliy huquq tizimini mustahkamlashga, balki xalqaro maydonda raqobatbardosh mutaxassislarini yetishtirishga ham xizmat qiladi. O‘zbekistonda bu borada olib borilayotgan islohotlar huquq ta‘limining sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun mustahkam asos yaratilmoqda.

Huquq ta‘limida klasterlashning muhim ahamiyati shundaki klasterlash tizimi yuridik ta‘lim muassasalari, sud organlari, advokatura, notarius va boshqa yuridik xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. Bu esa:

- talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash;
- amaliy ko‘nikmalarini oshirish;
- ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion loyihalarni birgalikda amalga oshirish;
- aholiga sifatli yuridik xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi.
- ta‘lim jarayoni nazariya va amaliyotni **uyg‘unlashtirgan** holda olib boriladi.

Huquqiy ta‘limda klaster yondashuvi dunyo miqyosida keng qo‘llanilmoqda. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlarda yuridik ta‘lim muassasalari sud

organlari, advokatura va yuridik klinikalar bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritmoqda. Masalan, Harvard Law Schooldagi Legal Aid Bureau talabalar tomonidan boshqariladigan, kam ta'minlangan qatlamga bepul yuridik yordam ko'rsatuvchi tashkilotdir [8]. Bu model orqali talabalar o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi va ularning kasbiy mas'uliyat hissi privojlanadi. Buyuk Britaniyada yuridik ta'lim muassasalari talabalarni amaliyotga jalb qilishda keng ko'lamli pro bono dasturlarini amalgalashmoqda. Masalan, **University of Surreyda** oliy o'quv yurtlarida talabalar "Access to Justice Clinic" orqali talabalar real mijozlar bilan ishlashadi, bepul yuridik maslahatlar berishadi va huquqiy hujjatlar tayyorlash orqali jamiyatdagi huquqiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishadi [9]. Shuningdek, **University of Sheffieldda** talabalar "FreeLaw" dasturi orqali jamoatchilikka bepul yuridik maslahatlar berishadi [10]. Bu tajribalar ularning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlashga yordam beradi.

Germaniyani misol tariqasida oladigan bo'lsak yuridik ta'lim ikki bosqichdan iborat bo'lgan universitetdagi nazariy ta'lim va "Referendariat" deb ataluvchi ikki yillik amaliyot mavjud. Bu amaliyot davomida talabalar sudlar, prokuratura va advokatura organlarida ishlashadi, bu esa ularning kasbiy malakasini oshiradi. Bu tizim talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash imkonini beradi [11]. 2008-yildan boshlab Germaniyada talabalar tomonidan boshqariladigan yuridik klinikalar faoliyat yuritmoqda. Bu klinikalar, ayniqsa, migratsiya huquqi sohasida, aholining huquqiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalar bu klinikalarda ixtiyoriy ravishda ishlashadi, bu esa ularning nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkonini yaratadi. Masalan, **Refugee Law Clinic Hamburg** talabalariga amaliy tajriba orttirish va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish imkonini beradi. Bu klinikalar orqali talabalar migratsiya huquqi bo'yicha bepul yuridik maslahatlar berishadi [12].

O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'limni amaliyot bilan integratsiyalash doirasida "**pro bono**" (bepul ixtiyoriy yuridik yordam) institutining joriy etilishi muhim qadam bo'ldi. Milliy tajribada bu borada ba'zi islohotlar ham oshirilib kelinmoqda. Xususan, 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-sonli Prezident Farmonida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar belgilangan bo'lib, bu jarayonda "pro bono" asosida Toshkent davlat yuridik universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha ijtimoiy yo'naltirilgan yuridik klinika faoliyatini (Pro bono) va talabalar klinik ta'limini rivojlantirish, shuningdek, "Street Law" loyihasini faol amalgalashmoqda. Shuningdek, 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli Farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha konsepsiya tasdiqlanib, unda ham aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish vazifasi belgilangan [13]. Ushbu tashabbuslar doirasida yuridik ta'lim berilayotgan muassasalar talabalarini "pro bono" faoliyatiga jalb etish orqali ularning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash, kasbiy mas'uliyat hissini shakllantirish va aholining huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qilishga olib kelmoqda. Bu esa xorijiy tajribadagi kabi yuridik klinikalar va sud organlari bilan hamkorlikda integratsion tizimni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Huquq ta'limi klasterlari va ularning umumiyligi tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

- Yuridik oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar;
- Sud, prokuratura, advokatura, notarius va boshqa yuridik xizmat ko'rsatuvchi organlar;
- Yuridik klinikalar va huquqiy maslahat markazlari;
- Davlat va nodavlat sektoridagi hamkor tashkilotlar;

Mazkur elementlarning hamkorligi yuridik ta'lim sifatini oshirish va zamонавиy talablar asosida yuridik kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

Huquqiy ta'lim klasterlarining O'zbekistonda amaliyotga joriy etilayotgan ayrim quyidagi elementlari mavjud:

Xususan:

Toshkent davlat yuridik universiteti tashabbusi bilan ta'lim va amaliyotni integratsiya qilish maqsadida klaster tizimi tashkil etilgan. Yuridik klinikalar faoliyati samarali yo'lga qo'yilib, talabalar aholiga bepul yuridik maslahatlar berish, huquqiy hujjatlar tayyorlash, fuqarolik va iqtisodiy nizolar bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish ishlarida bevosita ishtirok etmoqda. Shu bilan bir qatorda "Yosh prokurorlar", "Yosh advokatlar", "Yosh sudyalar" klublari doirasida talabalar sud, prokuratura va advokatura organlarida amaliyot o'tamoqda.

Bu jarayonlarda aynan yuridik klinikalar, huquqiy maslahat markazlari, sud, advokatura va boshqa huquqiy institutlar faol ishtirok etib, klaster tizimi doirasida hamkorlik qilmoqda va talabalarni amaliy ko'nikmalarga tayyorlamoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston huquqiy ta'lim tizimi uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- Huquqiy ta'lim klasterlari milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va nazariy-huquqiy asoslarini mustahkamlash;
- Hududiy yuridik ta'lim klasterlarini tashkil etish va ularni sud-huquq organlari, yuridik firmalar hamda fuqarolik jamiyatni institutlari bilan integratsiya qilish;
- Advokatlar, sudyalar va prokurorlar maktablarini yuridik ta'lim klasterlari doirasida faoliyat yuritishini yo'lga qo'yish;
- Yuridik ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlarni joriy etish;
- Talabalarni klaster asosida tayyorlashda kasbiy etika va xalqaro huquq talablariga alohida e'tibor qaratish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — raqobatbardosh va yuksak xalqchil malakali kadrlar tayyorlash jarayonini tizimli va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishdan iborat. Aynan shu nuqtai nazardan, **huquqiy ta'lim klasterini rivojlantirish** zamon talabi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Klasterlash tizimi orqali oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, sud-huquq organlari, advokatura va boshqa amaliyotchi tashkilotlar o'rtaida uzviy aloqalarni ta'minlash, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish hamda pirovardida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizm vujudga kelishi ayni muddaodir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Porter, M. E. (1998). *Clusters and the New Economics of Competition*. Harvard Business Review. URL: <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni. PF-5987-son 29.04.2020 // URL: <https://lex.uz/docs/-4802181>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruvin tizimini shakllantirish to'g'risida" farmoni. PF-80-son 24.05.2024 // URL: <https://lex.uz/docs/-6937312>
4. Fullan, M. (2007). *The New Meaning of Educational Change* (4-nashr). Teachers CollegePress.<http://www.daneshnamehicsa.ir/userfiles/files/1/6%20The%20New%20Meaning%20of%20Educational%20Change,%20Fourth%20Edition.pdf>

5. Harper, D. (2024). *Synergy*. In Online Etymology Dictionary. Mavjud: <https://www.etymonline.com/word/synergy>
6. Skornyakova E.R. Upravleniye sovremennoy shkoloy na primere obrazovatel'nogo klastera [Management of modern school on the example of educational cluster]. IX Mezhdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya "Problemy i perspektivy razvitiya obrazovaniya v Rossii" [IX International Scientific-Practical Conference "Problems and prospects of education development in Russia"]. Novosibirsk, 2011 (in Russian). URL: http://www.zrns.ru/2konf_arhiv_pn9.html (accessed: 7 September 2021).
7. Y.V. Kalinyuk, L.G. Smyshlyaeva, D.M. Matveev. Cluster-Based Transformation of Regional Education. Education & Pedagogy Journal. 2022. 1 (3)<https://cyberleninka.ru/article/n/cluster-based-transformation-of-regional-education>
8. Harvard Law School. (n.d.). *Harvard Legal Aid Bureau*. Retrieved August 7, 2025, <https://hls.harvard.edu/clinics/in-house-clinics/harvard-legal-aid-bureau/>
9. University of Surrey. (n.d.). *Clinical Legal Education*. Retrieved August 7, 2025, <https://www.surrey.ac.uk/school-law/study/clinical-legal-education>
10. University of Sheffield. (n.d.). *Pro bono schemes and student legal clinics*. Retrieved August 7, 2025. <https://www.sheffield.ac.uk/law/undergraduate/probono/>
11. University of Bonn. (n.d.). *Description of the Law Education System in Germany*. Retrieved August 7, 2025, https://www.jura.unibonn.de/fileadmin/Fachbereich_Rechtswissenschaft/Einrichtungen/Auslandskoordination/Description_Law_Education_System_in_Germany.pdf
12. University of Hamburg. (n.d.). *Refugee Law Clinic – Was ist eine Law Clinic?* Retrieved August 7, 2025, <https://www.jura.uni-hamburg.de/en/lehrprojekte/law-clinics/refugee-law-clinic/was-ist-lawclinic/>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni. PF-5618-son 09.01.2019 //URL: <http://lex.uz/ru/docs/-4149765>

YURIST AXBOROTNOMASI
4-SON, 6-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 4, ВЫПУСК 6

LAWYER HERALD
VOLUME 6, ISSUE 4

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416